

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM,  
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI



O'ZBEKISTON DAVLAT JAHON  
TILLARI UNIVERSITETINING

**ODOB-AXLOQ  
QOIDALARI**

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM,  
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI



O'ZBEKISTON DAVLAT JAHON  
TILLARI UNIVERSITETINING  
ODOB-AXLOQ QOIDALARI

O'zbekiston davlat jahon tillari  
universiteti Kengashining 2024-yil  
27-iyundagi 11-sodan bayoni bilan  
tasdiqlangan

# **O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetining ODOB-AXLOQ QOIDALARI**

## **1-BOB. UMUMIY QOIDALAR**

### **1-modda. Ushbu qoida bilan tartibga solinadigan munosabatlar**

Ushbu qoida O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiysi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Davlat oliy ta’lim muassasalarining akademik va tashkiliy-boshqaruv mustaqilligini ta’minalash bo‘yicha qo‘sishimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori hamda boshqa qonun va qonunosti hujjatlarga muvofiq ishlab chiqilgan bo‘lib, O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti (keyingi o‘rinlarda – Universitet) professor-o‘qituvchi va boshqa xodimlari (texnik, yordamchi), talaba, magistrant va doktorantlari (keyingi o‘rinlarda – xodim, talaba va doktorant) kasbiy odob-axloqining tamoyillari, normalari, ta’lim jarayoni va xizmatdagi xulq-atvorining asosiy qoidalari bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga soladi.

### **2-modda. Odob-axloq qoidalarining maqsad va vazifalari**

Odob-axloq qoidalarining maqsadlari:

professor-o‘qituvchi va ishchi xodimlar, talaba va doktorantlar madaniyatini milliy hamda umuminsoniy qadriyatlar asosida shakllantirish;

universitetga oid odob-axloq qoidalarining tushunchasini shakllantirish va takomillashtirib borish;

professor-o‘qituvchi va ishchi xodimlarni, talaba va doktorantlarni universitet va uning qadriyatlariga hurmat ruhida tarbiyalash;

universitetda kiyinish, tashqi ko‘rinish va xulq-atvorga bo‘lgan talablarni o‘rnatishdan iboratdir.

Odob-axloq qoidalarining vazifalari quyidagilardan iborat:

universitetda professor-o‘qituvchi va ishchi xodimlari, talaba va doktorantlari o‘rtasida huquqbuzarlik va jinoyatchilikning oldini olishga qaratilgan profilaktik tadbirlarni amalga oshirish;

universitetda zo‘ravonlik, shafqatsizlik va hayosizlik kabi nomaqbul xatti-harakatlar bilan shug‘ullanish va (yoki) targ‘ibot-tashviqot qilinishini oldini olish;

turli salbiy illatlar va milliy mentalitetimizga yot bo‘lgan g‘oya va qarashlar, ekstremizm, separatizm, radikalizm, fundamentalizm va «ommaviy madaniyat»ning ta’sir hamda xurujlarining targ‘ibot-tashviqot qilinishiga oid harakatlarning oldini olish;

mazkur nomaqbul xatti-harakatlar sodir etilishining sabab va shart-sharoitlarini aniqlash, bartaraf etish;

professor-o‘qituvchi va ishchi xodimlarda, talaba va doktorantlarda yuksak huquqiy ongni shakllantirish orqali O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi, qonunlari va boshqa normativ-huquqiy hujjatlariga qat’iy rioya qilish ruhida tarbiyalash;

professor-o‘qituvchi va ishchi xodimlarda, talaba va doktorantlarda fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va manfaatlarini doimo hurmat qilish hamda himoya qilish ko‘nikmasini shakllantirish va yuksaltirish;

professor-o‘qituvchi va ishchi xodimlarda, talaba va doktorantlarda vatanparvarlik, yuksak ma’naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirish va ularni milliy qadriyatlarimizga hurmat ruhida tarbiyalash;

universitetda sog‘lom ijtimoiy-psixologik muhitni shakllantirish va rivojlantirish;

professor-o‘qituvchi va ishchi xodimlarda, talaba va doktorantlarda tashqi ko‘rinishga oid madaniyatni shakllantirish uchun sharoitlar yaratish;

universitetning davlat va jamiyat hayotidagi hamda ta’lim tizimidagi nufuzi, obro‘-e’tiborini asrab-avaylash va yanada oshirish.

### **3-modda. Odob-axloq qoidalarining amal qilish doirasi**

Ushbu Qoida universitetning barcha professor-o‘qituvchi va ishchi xodimlariga, talaba va doktorantlariga nisbatan tatbiq etiladi.

## **2-BOB. ODOB-AXLOQ QOIDALARINING PRINSIPLARI**

### **4-modda. Universitet professor-o‘qituvchi va ishchi xodimlari, talaba va doktorantlari xulq-atvorining asosiy prinsiplari**

Mazkur Qoida qonuniylik, fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarining ustuvorligi, vatanparvarlik, xizmat va o‘qish burchiga sodiqlik, adolat, halollik va xolislik, samaradorlik va tejamkorlik prinsiplariga asoslanadi.

## **5-modda. Qonuniylik prinsipi**

Universitet professor-o‘qituvchi va ishchi xodimlari, talaba va doktorantlari O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga so‘zsiz rioya qiladilar hamda o‘z xizmat va o‘qish majburiyatlarini lavozim yo‘riqnomalari, mehnat shartnomalari, ushbu Odob-axloq qoidalari, universitet Ichki tartib qoidalari hamda ta’limga oid boshqa me’yoriy hujjatlarga muvofiq bajaradilar.

## **6-modda. Fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlарining ustuvorligi prinsipi**

Fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari universitetning oliv qadriyati bo‘lib hisoblanadi. Universitet professor-o‘qituvchi va ishchi xodimlari, talaba va doktorantlarining huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari buzilishiga yo‘l qo‘ymaydilar va bunday buzilishlar ro‘y bergan hollarda ularni tiklashga ko‘maklashadilar.

## **7-modda. Vatanparvarlik, xizmat va o‘qish burchiga sodiqlik prinsipi**

Universitet professor-o‘qituvchi va ishchi xodimlari, talaba va doktorantlari o‘z o‘qish va xizmat faoliyatlarini ma’naviy-axloqiy qadriyatlar, Vatanga sadoqat, xizmat va o‘qish burchiga sodiqlik asosida jamiyatning universitetga bo‘lgan talabi va ishonchini ifodalagan holda amalga oshiradilar. Professor-o‘qituvchi va ishchi xodimlar, talaba va doktorantlar o‘z o‘qish va xizmat burchlarini o‘zaro xayrixohlik, o‘z manfaatlari va mafkuraviy qarashlaridan qat’iy nazar lozim darajada bajaradilar.

## **8-modda. Adolat, halollik va xolislik prinsipi**

Universitet professor-o‘qituvchi va ishchi xodimlari, talaba va doktorantlari o‘z xizmat va o‘qish faoliyatlarini amalga oshirishda adolatli, halol va xolis bo‘lishlari hamda universitetga, unga tegishli bo‘lgan saytlar va ijtimoiy tarmoqlarga murojaat qilgan barcha yuridik va jismoniy shaxslarga nisbatan ushbu prinsip talablari asosida munosabatda bo‘lishlari shart.

## **9-modda. Samaradorlik va tejamkorlik prinsipi**

Universitet professor-o‘qituvchi va ishchi xodimlari, talaba va doktorantlari o‘z faoliyati samaradorligini innovatsion texnologiyalarni tatbiq etish va boshqa yo‘llar bilan doimiy ravishda oshirib boradilar.

Universitet professor-o‘qituvchi va ishchi xodimlari, talaba va doktorantlari, o‘z navbatida, universitetning mulkiga, o‘zining va boshqa shaxslarning vaqtiga mas’uliyat va ehtiyotkorlik bilan yondashadilar.

### **3-BOB. KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH**

#### **10-modda. Korrupsiyaning har qanday shakl va ko‘rinishini qabul qilmaslik**

Universitet professor-o‘qituvchi va ishchi xodimlari, talaba va doktorantlari korrupsiyaning har qanday shakli va ko‘rinishini qabul qilmaydilar va uning biror-bir tarzda namoyon bo‘lishiga qarshi hamjihatlikda qonuniy choralarni ko‘radilar.

Professor-o‘qituvchi va ishchi xodimlar, talaba va doktorantlar korrupsiyaga qarshi kurashishlari va uning profilaktikasiga faol ko‘maklashishlari, shuningdek, universitetning korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati va boshqa korrupsiyaga qarshi kurashishga oid hujjatlar talablarini so‘zsiz bajarishlari, o‘z faoliyatlarini oshkora va adolatli amalga oshirishlari, yuqori axloqiy qadriyatlar va prinsiplarga sodiq qolgan holda qonun ustuvorligiga qat’iy rioya etishlari shart.

### **4-BOB. PROFESSOR-O‘QITUVCHI VA ISHCHI XODIMLAR, TALABA VA DOKTORANTLAR YURISH-TURISH VA RASMIY MULOQOTIGA OID TALABLAR**

#### **11-modda. Universitetda kiyinish va tashqi ko‘rinishga oid qoidalar**

Universitet professor-o‘qituvchi va ishchi xodimlari, talaba va doktorantlari universitet logotipi tushirilgan yagona dresskod kiyinish madaniyatiga rioya etishlari lozim.

Universitet professor-o‘qituvchi va ishchi xodimi, talabasi va doktoranti bo‘lgan xotin-qizlari tanani shaffof ko‘rsatib turadigan, yelka, ko‘krak va qorin, tizzadan yuqori qismlari ochiq qoladigan hamda haddan ziyod tor kiyimda, shuningdek, qulqchinlar, qulq va barmoqlardan tashqari tananing turli qismlariga turli zirak yoki metall buyumlar bilan, tanasining ko‘rinib turadigan qismida pirsing yoki tatuirovkada universitetga kelishlari mumkin emas.

Talaba-qizlar universitet logotipi tushirilgan yagona dresskod kiyinish madaniyatiga rioya etgan holda och rangli va yorqin rangda bo‘lmagan bluzkalarda, tizzani yopib turadigan yubka, klassik turdagil shimplar yoki odmi

kostyum va to‘q rangdagi poyabzalda kelishlari lozim, shuningdek, o‘zlar bilan zaruriy o‘quv vositalarini olib kelishlari shart.

Universitet professor-o‘qituvchi va ishchi xodimi, talabasi va doktoranti bo‘lgan erkaklar universitet logotipi tushirilgan yagona dresskod kiyinish madaniyatiga rioya etgan holda oq, havorang, och jigar rang yoki och kulrang ko‘ylakda, klassik uslubdagi shim yoki odmi kostyum, va to‘q rangdagi poyabzalda kelishlari lozim. Bunda, talabalar o‘zlar bilan zaruriy o‘quv vositalarini olib kelishlari shart.

Professor-o‘qituvchi va ishchi xodimlarga, talaba va doktorantlarga universitet logotipi tushirilgan yagona dresskod kiyinish madaniyati hamda professionallikka va tanlagan kasbiga xos tarzda kiyinish targ‘ib qilinadi.

Professor-o‘qituvchi va ishchi xodimlarning, talaba va doktorantlarning auditoriya va xizmat xonalarida ustki kiyim (plash, palto, kurtka hamda bosh kiyim kabilar)da yurishlari taqiqlanadi.

Professor-o‘qituvchi va ishchi xodimlarning, talabalar va doktorantlarning tashqi qiyofasi (soch va saqolni tartibga keltirish) va kiyimlari ozoda, pokiza bo‘lishi lozim.

Shuningdek, professor-o‘qituvchi va ishchi xodim, talaba va doktorantlarning universitetga kelishi ruxsat etilgan formasiga turli din va konfessiyalar hamda submadaniyatlarga mansublikni aks ettiruvchi elementlarni (kipa, kashaya, xoch, hijob, yuzning asosiy qismini to‘sib qo‘yuvchi jag‘ ostidan bog‘lanadigan ro‘mol va boshqalar) qo‘shishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Dam olish kunlari (shanba va yakshanba) erkin ust-boshda (tanani shaffof ko‘rsatib turadigan, yelka, ko‘krak va qorin, tizzadan yuqori qismlari ochiq qoladigan, turli din va konfessiyalar hamda submadaniyatlarga mansublikni aks ettiruvchi kiyimda kelish bundan mustasno) kelishga ruxsat etiladi (rasmiy tadbirdarda ishtirok etishga jalb qilinganlar belgilangan kiyinish tartibiga amal qilgan holda keladi).

## **12-modda. Majlis va yig‘inlarda ishtirok etish**

Universitet professor-o‘qituvchi va ishchi xodimlari, talaba va doktorantlari turli tadbirdar (majlislar, tantanali yig‘ilishlar, uchrashuvlar, bayramlar)dagi ishtiroki jarayonida so‘zga chiquvchilarga nisbatan hurmat bilan munosabatda bo‘lishlari, tadbir davomida tinchlik va osoyishtalikni saqlashlari shart bo‘lib, raislik qiluvchi va moderatorning ruxsatisiz so‘z qo‘shish va so‘zga chiqish mumkin emas. Zarurat tug‘ilganda nutqlar o‘rtasida uzrli sabablar

asosida majlislar zalidan chiqib-kirish mumkin.

### **13-modda. Binolarda yurish-turish qoidalariga amal qilish**

Binolarga kirish va chiqish joylarida, shuningdek, yo'laklarda talabalar xodimlarni, erkaklar ayollarni, yoshlar esa kattalarni o'zlaridan oldin o'tkazib yuborishlari lozim.

Binoga kirayotgan universitet professor-o'qituvchi va ishchi xodimlari, talaba va doktorantlari binolarga kirib-chiqishni nazorat qilish uchun tayinlangan mas'ul shaxs yoki navbatchiga o'z shaxsini tasdiqlovchi hujjatni (ruxsatnama, talabalik guvohnomasi, pasport va h.k.) ochiq holda ko'rsatishlari yoki maxsus berilgan ID-karta va feys-kontrol orqali turniketlardan o'tishlari shart.

Professor-o'qituvchi va ishchi xodimlar, talaba va doktorantlar universitet hududida yo'lning o'ng tomonidan yurishlari, shuningdek, yo'lak va xollarda mobil aloqa vositalari orqali baland ovozda gaplashmasliklari kerak. Bir-birlariga duch kelganda salomlashishlari, bunda: talabalar professor-o'qituvchi va ishchi xodimlarga, yoshlar kattalarga birinchi bo'lib salom berishlari tavsiya etiladi.

### **14-modda. Professor-o'qituvchi va ishchi xodimlar, talaba va doktorantlarning rasmiy muloqot me'yorlari**

Universitet professor-o'qituvchi va ishchi xodimlari, talaba va doktorantlari tashkilot va muassasalar, ommaviy axborot vositalari hamda fuqarolar bilan o'zaro munosabatga kirishganda quyidagi rasmiy muloqot me'yor va qoidalariga amal qilishlari kerak:

o'z harakatlarini universitet manfaatlarini ko'zlab amalga oshirish, uning imijini saqlash va oshirish, universitet, uning professor-o'qituvchi va ishchi xodimlari, talabalari va doktorantlari nomi va manfaatlariga ziyon yetkazadigan harakatlarni amalga oshirmaslik, shuningdek, ular bilan muloqot qilganda hamda ijtimoiy tarmoq va messenjerlardagi yozishmalarida o'zlarining namunali xulq-atvori bilan universitet haqida yuksak ijobiy taassurot uyg'otish;

universitet, uning professor-o'qituvchi va ishchi xodimlari, talaba va doktorantlari haqida haqiqatga to'g'ri kelmaydigan yoki noto'g'ri talqin qilingan, noto'g'ri talqin qilish uchun imkon beradigan ma'lumotlarni tarqatmaslik, bunday ma'lumotlar tarqalishiga yo'l qo'ymaslik, shuningdek, jamoat oldida va ijtimoiy tarmoqlarda bu mavzuda chiqishlar qilmaslik;

professor-o'qituvchi va ishchi xodimlarning, talaba va doktorantlarning roziligesiz ularning shaxsiy hayotiga oid ma'lumotlarni oshkor qilmaslik;

professor-o‘qituvchi va ishchi xodimlar, talaba va doktorantlar haqida ularning kasbiy va o‘quv faoliyatiga oid bo‘lmagan ma’lumotlarni aniqlashtirmaslik;

xizmat axborotlarini taqdim etish qoidalariga amal qilish;

so‘ralgan axborotni yetarilik (haddan tashqari qisqa, shu bilan birga, o‘ta keragidan ortiq) va ishonchlilik (qayta tekshirishni talab qilmaydigan) talablariga muvofiq holda taqdim etish;

o‘z xizmat vazifalarini bajarish jarayonida olingan ma’lumotlardan maqsadga muvofiq bo‘lmagan tarzda foydalanmaslik, shuningdek, ularni universitet rahbariyati ruxsatisiz tarqatmaslik;

professor-o‘qituvchi va ishchi xodimlarning talaba va doktorantlarning ta’lim jarayonidagi faoliyati va kasbiy harakatlarini asossiz tanqid qilmaslik, jamoat oldida chiqishlar, shunindek, ommaviy axborot vositalari va turli xil ijtimoiy tarmoqlarda davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari va universitet faoliyati, uning xodimlari harakatlarini haqiqatga to‘g‘ri kelmaydigan, asossiz va aniq dalillarga asoslanmagan holda muhokama qilmaslik va ular haqida baho berib, fikr-mulohazalar bildirmaslik.

### **15-modda. Ish va o‘qish vaqtiga rioya qilish**

Professor-o‘qituvchi va ishchi xodimlar, talaba va doktorantlar dars mashg‘ulotlari va ishga o‘z vaqtida kelishlari, mehnat hamda o‘qish intizomiga rioya qilishlari shart.

### **16-modda. Universitetda g‘ayriaxloqiy va nojo‘ya xatti-harakatlarni sodir etishga yo‘l qo‘yilmasligi**

Talaba va doktorantning o‘qishiga, professor-o‘qituvchi va ishchi xodimlarning esa universitetda mehnat faoliyatini yuritishiga to‘sqinlik qiladigan quyidagi g‘ayriaxloqiy va nojo‘ya xatti-harakatlarni sodir etishi qat’ian taqiqlanadi:

har qanday huquqbazarlik yoki jinoyat sodir etish, jumladan, tuhmat qilish, haqoratlash;

giyohvand moddalar, psixotrop, sintetik vositalar va ularning analoglari, alkogol, energetik ichimliklar va tamaki mahsulotlari, vayp, chilim, elektron sigaretlar va sarxush qiluvchi boshqa vosita hamda moddalarni iste’mol qilish va tarqatish;

tinchlik yoki osoyishtalikka qarshi tajovuz qilish, janjallashish, qimor va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o‘yinlar o‘ynash;

universitetga moddiy va universitetning obro‘siga salbiy ta’sir etuvchi ma’naviy zarar yetkazish;

professor-o‘qituvchi va ishchi xodimlarga, talaba va doktorantlarga jismoniy, ma’naviy yoki moddiy zarar yetkazish;

professor-o‘qituvchi va ishchi xodim, talaba, doktorant yoki boshqa shaxslarning mulkiga, moddiy qimmatliklariga egalik qilish, foydalanish yoki tasarruf etish uchun turli ko‘rinishda egallab olish, basharti ushbu holat tegishli asoslar bilan o‘z tasdig‘ini topsa;

universitet atrof-muhitini har qanday ko‘rinishda ifoslantirish;

universitet binolari va hovlisida, shuningdek, universitet binolariga tutashgan hududda spirtli ichimliklar ichish va tamaki yoxud boshqa turdag'i mahsulotlarni chekish hamda mast holda bo‘lish, tashqi ko‘rinishga va ushbu Odob-axloq qoidalarida belgilangan qoidalarga zid ravishda soch-soqoli o‘sgan, to‘zg‘igan, sochlarni noodatiy bir yoki bir necha ranglarga bo‘yalgan va kiyinish talablariga rioya qilmagan holda kelish;

universitetga tegishli kompyuterlarda universitetga tegishli bo‘lmagan ma’lumotlarni, shuningdek, turli kinofilmlar, noqonuniy ma’lumotlar, behayo surat va filmlar, milliy, irqiy, etnik, diniy adovatni targ‘ib qiluvchi, ekstremistik, separatistik va fundamentalistik kayfiyatdagi har qanday materiallarni tayyorlash, ko‘rish, saqlash, tarqatish va ularga da’vat etish;

o‘quv mashg‘ulotlari va ishga hamda xodim va talabalarning osoyishtaligiga xalaqit beradigan xatti-harakatlar sodir etish (radiouzatgich, televizor, multimedia va ovoz chiqaruvchi moslamalardan maqsadsiz foydalanish);

professor-o‘qituvchi va ishchi xodimlar, talabalar va doktorantlar tomonidan soxta ma’lumot va hujjatlarni taqdim etish;

professor-o‘qituvchi va ishchi xodimlar, talabalar va doktorantlar tomonidan oliy ta’lim muassasasi hujjatlariga qasddan o‘zgartirish kiritish yoki ularni yo‘q qilish (bo‘yash, o‘chirish, qo‘srimcha yozuvlar kiritish yoki zarar yetkazish);

o‘quv jarayoniga oid qoida va talablar buzilishi bilan bog‘liq holatlar akademik halollikka oid ichki me’yoriy hujjatlar bilan tartibga solinadi;

umumbashariy va milliy qadriyatlarga xos bo‘lmagan yoki universitet, uning xodimlari nufuziga putur yetkazadigan materiallarni Internet tarmog‘i va boshqa ijtimoiy tarmoqlarga joylashtirish yoki ulardan turli nomuvofiq maqsadlarda foydalanish.

Professor-o‘qituvchi va ishchi xodimlar, talabalar va doktorantlar tomonidan universitetning ishchanlik obro‘sni, qadr-qimmati va nufuzini tushiradigan, ta’lim jarayonining ma’naviy buzilishiga olib keladigan agressiya, odamlarning sha’ni va qadr-qimmatini kamsitadigan, zo‘rlash va vahshiylik, vandalizm, millatlararo nizo qo‘zg‘atadigan, ta’qiqlangan diniy yo‘nalishdagi, terrorizm, ekstremizm, va fundamentalizm, shuningdek, behayo va ishqiy sahnalarini namoyon qiladigan fotosuratlar, video va audioyozuvlardan foydalanish va ularning tarqatilishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

Shuningdek, davlat hokimiysi va boshqaruvi organlari, sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar hamda boshqa tashkilotlar, shuningdek, universitet faoliyati, uning xodimlari hamda talabalari sha’ni va qadr qimmati hamda ishchanlik obro‘siga salbiy ta’sir qiluvchi haqiqatga to‘g‘ri kelmaydigan, asossiz va tekshirilgan dalillarga asoslanmagan turli xil ko‘rinishdagi ma’lumot, fikr, mulohaza va munosabatlarni Internet, ijtimoiy tarmoqlar, shuningdek, boshqa ommaviy axborot manbalarida, tarqatuvchilarda, tashuvchilarda paydo bo‘lishi (oshkor etilishi) mazkur talaba va doktorantning o‘qishiga, professor-o‘qituvchi va ishchi xodimning esa universitetda mehnat faoliyatini yuritishiga to‘sinqinlik qiladigan g‘ayriaxloqiy va nojo‘ya xatti-harakat hisoblanadi.

## **5-BOB. UNIVERSITET RAHBARIYATINING ODOB-AXLOQQA OID MAJBURIYATLARI VA KASBIY FAOLIYATDA MANFAATLAR TO‘QNASHUVIGA YO‘L QO‘YMASLIKKA OID TARTIBLAR**

### **17-modda. Rahbarning majburiyatları**

Rahbariyat hamda tarkibiy bo‘linma rahbarlari (keyingi o‘rnilda – rahbar) o‘ziga bo‘ysunuvchi xodimlarga nisbatan yuqori professionallik, xolislik, soqlik va adolatda o‘rnak bo‘lishi, universitet yoxud uning tarkibiy bo‘linmalarida ijobiy, ma’naviy-psixologik muhit shakllanishiga ko‘maklashishi lozim. Rahbar bo‘ysunuvchi xodimlardan ularning xizmat vazifalari doirasidan chiquvchi topshiriqlarni bajarishini talab qilmasligi, shuningdek, qonunga xilof xatti-harakatlarni sodir etishga undamasligi kerak.

Rahbar o‘z faoliyatida:

kadrlarni qarindoshlik, hamshaharlik yoki shaxsiy sadoqat belgilari bo‘yicha tanlash va joy-joyiga qo‘yish va mehnat munosabatlarida kamsitish holatlariga yo‘l qo‘ymasligi;

guruhbozlik, mahalliychilik, favoritizmga, shuningdek, o‘z xizmat

vazifalarini bajarish jarayonida boshqa salbiy omillarning kelib chiqishiga yo‘l qo‘ymasligi;

qo‘pollik qilmasligi, odamlarning sha’ni va qadr-qimmatini kamsitmasligi, ularga psixologik va jismoniy ta’sir ko‘rsatmasligi;

manfaatlar to‘qnashuvining oldini olish va ularni tartibga solish yuzasidan o‘z vaqtida chora-tadbirlar ko‘rishi;

korrupsiyaning oldini olish choralarini ko‘rishi;

xodimlarning kasbiy va intellektual jihatdan rivojlanishlari uchun qulay ish joyi, zamonaviy kompyuterlar, Internet tarmog‘i, kutubxona fondi va axborot resurslaridan erkin foydalanishlari, hordiq chiqarishlari, dam olishlari, jismonan chiniqishlari uchun barcha sharoitlarni ichki imkoniyatlardan kelib chiqib yaratib berishi;

xodimlar faoliyatini samarali tashkil etib, o‘ziga ishonib topshirilgan mulkka va moliyaviy mablag‘larga ehtiyojkorlik va tejamkorlik bilan munosabatda bo‘lishi shart.

Rahbar qo‘l ostidagi xodimlarning mehnat intizomiga rioya qilishlarini talab qilishi va uni ta’minalashga mas’uldir.

## **6-BOB. PROFESSOR-O‘QITUVCHI VA ISHCHI XODIMLAR, TALABA VA DOKTORANTLARNING O‘ZARO MUNOSABATLARIIGA OID TALABLAR**

**18-modda. Professor-o‘qituvchi va ishchi xodimlar, talaba va doktorantlarning o‘zaro munosabatlari**

Professor-o‘qituvchi va ishchi xodimlar, talaba va doktorantlarning o‘zaro munosabatlari milliy qadriyat va an'analar, yagona jamoaviy muhit, o‘zaro hurmat va e’tibor, do‘slik, hamjihatlik, halollik vaadolat tamoyillariga asoslanishi lozim.

Professor-o‘qituvchi va ishchi xodimlar, talaba va doktorantlarning o‘zaro munosabatlarida inson qadr-qimmatiga hurmatsizlik, shaxsiyatni kamsitish, o‘zganing intellektual mulkini o‘zlashtirib olish, qo‘pollik, behayo so‘zlar ishlatish, mushtlashish qat’iyan man etiladi.

Pedagog xodimlar tomonidan talabalarga nisbatan o‘quv va tarbiya jarayonidagi yuqori talabchanlik ularning shaxsini hurmat qilish bilan birgalikda amalga oshirilishi kerak.

## **19-modda. Pedagog xodim va talabalarning auditoriyadagi va undan tashqaridagi o‘zaro munosabatlari**

Pedagog xodim auditoriyaga kirganida, barcha talabalar o‘rinlaridan turib hurmatlarini bildirgan holda kutib olishlari, so‘ngra pedagog xodim salomlashib, o‘tirishga ruxsat bergach, o‘z joylarini egallashlari kerak. Pedagog xodim darsini tugatib, auditoriyadan chiqib ketayotganda ham talabalar o‘rinlaridan turib, kuzatib qo‘yishlari lozim.

Pedagog xodimlar o‘quv jarayoni va boshqa holatlarda ham talabalarning shaxsini hurmat qilishi, ular bilan munosabatda ochiqlik va xayrixohlik tamoyillariga amal qilish, talabalarga ta’lim berish jarayonida o‘z vazifalarini beg‘araz amalga oshirishi, talabaga munosabatda ularni kamsitish, qo‘pol so‘z ishlatish, o‘zini yuqori tutish va tanish-bilishchilik kabi yondashuv shakllarini mutlaqo qo‘llamaslik, ularga nisbatan doimo haqqoniy munosabatda va xolis bo‘lishlari shart.

Pedagog xodimlar talabalarga ularni qiziqtirgan fan yoki o‘quv kursiga oid masalalar yuzasidan dars jarayonidan tashqari vaqtarda bergen savollariga ham axloq me’yorlariga amal qilgan holda javob qaytarishlari va ularni fanga bo‘lgan qiziqish va ishtiyoqlarini oshirish choralarini ko‘rishlari zarur.

## **20-modda. Akademik ta’qib va tazyiqqa yo‘l qo‘yilmasligi**

Universitet hayotida rahbariyat yoki pedagog xodim tomonidan talabalarni ularning roziligesiz muayyan ishlarga jalb etganlik, haq to‘lamasdan ularning mehnat kuchidan foydalanish (universitet va unga biriktirilgan boshqa hududda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti yoki Vazirlar Mahkamasining tegishli qarori bilan xavfsizlik standartlariga qat’iy rioya qilingan holda ixtiyoriy shanbalik va boshqa turdagи tadbirlar tashkil etilgan hollar bundan mustasno) maqsadida ularga murojaat etilganida, talabalar tomonidan bunday so‘rovga rad javobining berilishi pedagog xodim tomonidan kelgusida ularga dars mashg‘ulotida past baho qo‘yish yoki boshqa turdagи tazyiq va ta’qib (academic harassment) qilish bilan bog‘liq munosabat ko‘rsatilishiga imkon bermaydi va bunday ta’qib qattiq qoralanadi.

## **21-modda. Uyali aloqa vositalaridan foydalanish**

Dars mashg‘ulotlari vaqtida talaba uyali aloqa vositalaridan foydalanish barcha uchun qat’iyan taqiplanadi. Uyali aloqa vositalaridan foydalanishga zarur va uzrli holatlarda pedagog xodimning ruxsati bilan foydalanishi mumkin.

## **22-modda. Dars mashg‘ulotida ishtirok etish**

Talabalarning darsga kech qolib kelishlariga yo‘l qo‘yilmaydi. Lekin uzrli sababga ko‘ra darsga kech qolgan talaba uzr so‘rab, pedagog xodimning ijozati bilan auditoriyaga kirib o‘z joyini egallashi mumkin.

Pedagog xodim dars mashg‘ulotlariga o‘zining nojo‘ya harakatlari bilan xalaqit berayotgan talabani yuzaga kelgan vaziyat haqida fakultet dekanini (u o‘z o‘rnida bo‘lmaganda dekan o‘rbinosari yoki tyutor – guruh murabbiysini) xabardor qilgan holda darsdan chetlatishi mumkin.

## **23-modda. Dars mashg‘ulotidan tashqari vaqtida muloqot qilish**

Talaba uchun pedagog xodim bilan dars mashg‘ulotlaridan tashqari vaqtida muloqot qilish zarurati bo‘lsa, u holda muloqot:

maslahat soatlari, mustaqil ish yoki o‘zaro kelishuv bo‘yicha belgilangan vaqtida amalga oshirilishi mumkin;

talaba o‘zi muloqot qilmoqchi bo‘lgan pedagog xodimning lavozimi, ismi, otasining ismi va familiyasini bilishi maqsadga muvofiq.

Asoslangan jiddiy sabablar (qo‘pollik, tamagirlilik, dars sifatining pastligi, pedagog xodimning aybi bilan mashg‘ulotlar o‘tkazilishidagi muntazam uzilish hollarini isbotlovchi dalillar va b.) hamda guruh (kurs)ning yakdil fikri mavjud bo‘lgan holatlarda talabalar pedagog xodimni almashtirish haqida iltimos bilan fakultet dekaniga murojaat qilishlari mumkin.

## **24-modda. Subordinatsiya**

Rahbar xodimlarga professor-o‘qituvchi va ishchi xodim, talaba va doktorantlar tomonidan biron-bir masala yuzasidan vujudga kelgan holatlar bo‘yicha murojaat qilinishi muayyan tartib (subordinatsiya tamoyili), ya’ni munosabat bildirishdagi rahbariyat bo‘g‘inlariga bosqichma-bosqich chiqish asosida tashkil etiladi. Universitet rektoriga talabalarning to‘g‘ridan-to‘g‘ri murojaat qilish holatlari bundan mustasno.

## **25-modda. Tashabbus va faollik**

Professor-o‘qituvchi va ishchi xodimlar, talaba va doktorantlarning universitetda ma’naviy-axloqiy muhitni yanada yaxshilash, ta’lim sifatini oshirish, innovatsion g‘oyalardan samarali foydalanish, turli xil manfaatli tadbirlar uyushtirish bo‘yicha tashabbus va g‘oyalari rag‘batlantiriladi.

## **7-BOB. PROFESSOR-O'QITUVCHI VA ISHCHI XODIMLAR, TALABA VA DOKTORANTLARNING ODOB-AXLOQQA OID MAJBURIYATLARI**

### **26-modda. Odob-axloqqa oid majburiyatlar**

Universitetga o‘qishga, ishga kirayotgan shaxslar mazkur Odob-axloq qoidalari bilan yozma ravishda (imzo chektirib) tanishtiriladilar.

Professor-o‘qituvchi va ishchi xodim, talaba va doktorantlar:

qonun hujjatlari va mazkur Odob-axloq qoidalari talablariga rioya etishga;

doimo yuksaklikka intilish, halollik va adolat bilan hayot kechirish kabi olijanob fazilatlarni chuqur anglashga;

odob-axloqqa oid milliy an'analarimiz, urf-odat va qadriyatlarimizni hurmat qilishga;

o‘z ustilarida doimiy ravishda ishlash va qabul qilinayotgan qonun hujjatlarini muntazam ravishda o‘rganib borishga;

o‘z vazifalarini vijdanan, professional darajada amalga oshirishga;

universitet obro‘-e’tibori va nufuziga dog‘ tushiradigan har qanday harakatlarni sodir etishdan o‘zini tiyishga;

universitet to‘g‘risidagi axborotlardan uning manfaatlari va ishchanlik obro‘siga ziyon yetkazish maqsadida foydalanmaslikka;

universitet mulkiga ehtiyyotkorlik bilan munosabatda bo‘lish (ko‘char va ko‘chmas mulk, o‘simlik va hayvonot dunyosiga va b.), shu jumladan, xizmat vazifasini bajarish uchun berilgan moddiy texnika vositalaridan to‘g‘ri va tejamkorona foydalanishga;

elektr energiyasi va suvni tejamkorona ishlatischga;

biron-bir noxush voqeя yoki hodisa ro‘y bersa, u haqda zudlik bilan universitet rahbariyatiga xabar berishga;

belgilangan cheklar va taqiqlarga rioya qilish, o‘z vazifalarini og‘ishmay bajarishga, professor-o‘qituvchi va ishchi xodim, talaba va doktorantlarning shaxsiy va oilaviy muammolarini muhokama qilmaslikka, hech bir shaxs haqida jinsi, irqi, millati, tili, diniy e’tiqodi, ijtimoiy kelib chiqishi va lavozimi haqida hamda boshqa xususiyatlaridan qat’i nazar noto‘g‘ri fikr yuritmaslikka va uni kansitmaslikka;

professor-o‘qituvchi va ishchi xodimlar, talaba va doktorantlar, shuningdek, boshqa shaxslar haqida turli ig‘vo, fitna, g‘iybat va bo‘htonlar

uyushtirmaslikka va tarqatmaslikka;

universitet ishchanlik obro'si yoki nufuziga putur yetkazadigan nizoli vaziyatlarga yo'l qo'ymaslikka;

professor-o'qituvchi va ishchi xodimlar, talaba va doktorantning mehnat va o'quv jarayonidagi sa'y-harakatlariga qasddan ziyon yetkazmaslikka;

xotin-qizlarning sha'ni va qadr-qimmatini kamsitadigan harakatlar sodir etmaslikka, shilqimlik qilmaslikka, o'zaro munosabatlarda umume'tirof etilgan axloq qoidalariga zid, behayo so'zlardan foydalanmaslikka;

davlat organlari va mansabdor shaxslarning, shuningdek, universitet rahbariyatining o'z vakolatlari doirasida qabul qilgan (bergan) qarorlarini (topshiriqlarini) o'z vaqtida va sifatli bajarishga;

shaxsiy foydasi hamda o'zgalar manfaatini ko'zlab o'z mavqeini suiiste'mol qilmaslikka;

haqiqatni gapirishga, rahbarlar va boshqa xodimlarni chalg'itmaslikka; mutasaddi xodimlarning ruxsatisiz turli reklama vositalarini o'rnatmaslikka;

kasbiy faoliyati davomida o'zlariga ma'lum bo'lган, ularning oshkor etilganligi uchun qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javob beriladigan axborotning saqlanishi va maxfiyligini ta'minlash yuzasidan barcha choralarini ko'rishga;

sog'gom turmush tarzini yuritish va atrofdagilarning sog'lig'ini saqlashga g'amxo'rlik qilish, estetik va ekologik madaniyatning oshishiga ko'maklashishga;

tanqidiy mulohazalarni bildirishga va obyektiv qaror qabul qilishga, o'z xato va kamchiliklarini anglash va bartaraf etishga;

moddiy jihatdan yaxshi ta'minlanganligini turli yo'llar bilan ataylab ko'z-ko'z qilmaslikka;

Axborot-resurs markazi xodimlari bilan xushmuomala bo'lishga, kitoblar va jihozlarga ehtiyojkorona munosabatda bo'lishga, u yerda uyali aloqa vositalarini o'chirib qo'yish yoki ovozsiz rejimga qo'yishga, baland ovozda so'zlashmaslik va atrofdagilarga xalaqit bermaslikka, oziq-ovqat iste'mol qilmaslik, qog'oz, saqich va boshqa chiqindilarni qoldirib ketmaslikka, kitoblarni olish va topshirish tartib-qoidalariga rioya qilishga;

sport majmuasiga sport kiyimi va poyabzalida kirishga;

sport inventarlariga nisbatan ehtiyojkorona munosabatda bo'lishga;

mashg‘ulotlardan keyin sport inventarlarini belgilangan joylarga qayta topshirishga;

sport majmuasining belgilangan tartib-qoidalariga riosa qilishga;

universitet auditoriyalari, binolari va binolarga tutashgan hududda tozalikni saqlashga;

hududni ifoslantirmaslik, chiqindilarni joylarda qo‘yilgan maxsus qutilarga tashlashga;

shaxsiy avtomobilni taqiqlangan joyda qoldirmaslik, yo‘l harakati qoidalarini buzmaslik va beparvo bo‘lmaslikka, shuningdek, transport vositalaridan foydalanishda xavf-xatar yaratmaslikka;

ish (o‘qish)dan tashqari vaqtida umumiy qabul qilingan odob-axloq normalariga riosa etishlari, g‘ayriijtimoiy xatti-harakatlarga yo‘l qo‘ymaslikka majbur.

## **27-modda. Odob-axloqqa oid qo‘shimcha talablar**

### **a) talabalar:**

nutq madaniyatini doimiy takomillashtirib borishga;

talabalarning o‘z-o‘zini boshqarish tizimini faol qo‘llab-quvvatlash va mustahkamlash, ijodiy faoliyatni rivojlantirish va jamoaviy madaniyatni o‘stirishga;

pedagog xodim bilan boshqa talabalarning bahosini muhokama qilmaslikka;

yozma ishlarni himoya qilish va reyting nazoratiga doir tartib-qoidani bajarish vaqtida chetdan yordam olmaslik, o‘zgalarga yordam ko‘rsatmaslikka;

boshqa shaxslar tomonidan tayyorlangan topshiriqlar yoki yozma ishlarni o‘z nomidan topshirmaslikka;

mashg‘ulotlarni sababsiz o‘tkazib yubormaslikka va darslarga sababsiz kechikib kelmaslikka;

o‘quv mashg‘ulotlari vaqtida oliy ta’lim muassasasi hududida behuda yurmaslikka;

dars mashg‘ulotlari o‘tilayotgan vaqtida fakultet dekanlari, magistratura bo‘limi boshlig‘ining ruxsatisiz universitet hududidan ketib qolmaslikka;

universitet xodimlari va o‘qituvchilariga qo‘pollik qilmaslikka, ular bilan tortishmaslikka, agarda ular nohaq bo‘lsa tegishli shaxslarga xabar berishga,

o‘qituvchilarning shaxsiy hayotiga oid noo‘rin savollar bilan murojaat qilmaslikka, ularga nisbatan adovat saqlamaslikka;

professor-o‘qituvchi va ishchi xodimlar, talaba yoki doktorant bilan nizoli vaziyat yuzaga kelganda o‘z hissiyotlarini jilovlashga va mazkur vaziyatni ko‘rib chiqish bo‘yicha tegishli bo‘linma va xodimlar (murabbiy – tyutor), dekan, O‘zbekiston yoshlar ittifoqi boshlang‘ich tashkiloti, Yoshlar bilan ishslash, ma’naviyat va ma’rifat bo‘limi, Talabalar Kengashi)ga murojaat qilishga;

o‘quv jarayonida faol, e’tiborli bo‘lishga va pedagog xodimning ko‘rsatmalariga qat’iy rioya qilishga;

dars vaqtida gaplashmaslik hamda dars mashg‘ulotiga taalluqli bo‘lmagan ishlar bilan shug‘ullanmaslikka;

jihozlarga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lish, stol va stullarga yozmaslikka;

qog‘oz, saqich va boshqa keraksiz narsalarni auditoriyada qoldirib ketmaslikka;

mashg‘ulotlar davomida ovqatlanmaslik, saqich chaynamaslikka, shuningdek, shaxsiy kompyuter va boshqa kommunikatsiya vositalaridan faqat pedagog xodim ruxsati bilan foydalanishga;

pedagog xodimga mashg‘ulotlar vaqtida savol yoki iltimos bilan qo‘l ko‘targan holda va ruxsat berilganidan so‘ng murojaat qilishga;

umumiy ovqatlanish joylarida taomlarga buyurtma berish va olishda navbat tartibiga hamda belgilangan qoidalarga rioya qilishga;

Talabalar turar joyi Ichki tartib qoidasiga qat’iy rioya qilishga;

jamoat xavfsizlik manfaatlaridan kelib chiqib, imkon darajasida universitetga jamoat transportida kelishga;

### **b) xodimlar:**

o‘z xizmat joyidagi tartib-intizomga va universitet ichki tartib qoidalariga rioya qilishga;

ta’tildan oldin yoki mehnat shartnomasi bekor qilinganda o‘z xizmat joyini talabga javob beradigan holatda qoldirishga, o‘z zimmasidagi orgtexnika vositalari va boshqa materiallarni, o‘ziga topshirilgan, lekin hali yakunlanmagan vazifalarni boshqa shaxsga topshirmaslikka;

telefon orqali muloqot qilishda muomala madaniyati va axborot taqdim etish qoidasiga rioya qilishga (jumladan, suhbatni eng avval rasmiy tarzda

salomlashishdan boshlab, so‘ng o‘z xizmat muassasasi, lavozimi hamda familiyasi, ismi, sharifini aytib, maqsadga o‘tish lozim, taqdim etilayotgan axborot maksimal qisqa, lo‘nda va aniq bo‘lishi kerak, so‘ralayotgan ma’lumot suhbat jarayonida izlanishi tufayli telefon tarmog‘ini band qilishga yo‘l qo‘yilmaydi, zarurat bo‘lsa, qayta qo‘ng‘iroqni amalga oshirish mumkin);

yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga;

yoshlar orasida sog‘lom turmush tarzini qaror toptirish, ularni ichkilikbozlik va giyohvandlik illatlaridan, boshqa turli halokatli tahdidlar hamda biz uchun yot bo‘lgan ekstremistik, radikalistik ta’sirlardan, “ommaviy madaniyat” xurujlaridan ogoh etib borishga;

ta’lim oluvchilarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalash va ma’rifiy ishlarning samarali shakl hamda uslublarini ishlab chiqishga ko‘maklashishga;

o‘z xizmat vazifalarini vijdonan bajarishga shubha tug‘diradigan xattiharakatlarni qilmaslikka, talabalar bilan o‘z hamkasblarini kasbiy va shaxsiy kamchiliklarini muhokama qilmaslikka;

dars mashg‘ulotlariga kechikib kelgan yoki boshqa sabablarga ko‘ra talabalarni o‘quv mashg‘ulotlaridan chiqarib yubormaslikka, shuningdek, talabaga universitet talabalar safidan chetlashtirish (kursdan kursga qoldirish) yoki talabaning majburan o‘qishdan voz kechishiga undash bilan qo‘rqtmaslikka, uning asossiz talabalar safidan chetlashtirilishiga (kursdan-kursga qoldirilishiga) olib kelmaslikka;

ta’lim oluvchilarga nisbatan tazyiq o‘tkazish, tegajog‘liq va zo‘ravonlik qilish kabi sha’n va qadr-qimmatini kamsitadigan nojo‘ya-xatti harakatlarni sodir etmaslikka;

talabaga nisbatan adovatga bormaslikka;

akademik guruuhda (kursda) talabalar xulqining umumiyligi madaniy holati haqida fakultet dekanlariga kerak bo‘lgan hollarda ta’sir choralar ko‘rish lozimligi yuzasidan yozma ma’lumot taqdim etish kabi talablarni bajaradilar.

## **8-BOB. RAG‘BATLANTIRISH VA CHORA KO‘RISH TARTIBI**

### **28-modda. Xodim va talabalarni rag‘batlantirish**

O‘quv yili davomida mazkur Odob-axloq qoidalariga to‘la rioya qilgan, universitetda yuksak ma’naviy-axloqiy muhitning yanada qaror topishi va mustahkamlanishiga o‘z hissasini qo‘shgan xodim va talabalar rahbariyat,

fakultet dekanlari, kafedra mudirlari va boshqa tarkibiy bo‘linma rahbarlari tavsiyasiga binoan belgilangan tartibda moddiy yoki ma’naviy rag‘batlantirilishlari mumkin.

### **29-modda. Odob-axloq qoidalariga rioya qilishning attestatsiya va boshqa jarayonlar uchun ahamiyati**

Xodimlar tomonidan mazkur Odob-axloq qoidalariga rioya etilishi attestatsiyalar o‘tkazishda, yuqori va boshqa lavozimlarga tayinlash (karyeraviy o‘sish) uchun kadrlar zaxirasini shakllantirishda hisobga olinadi.

### **30-modda. Odob-axloq qoidalarini buzganlik uchun javobgarlik**

Universitet professor-o‘qituvchi va ishchi xodimlar, talaba va doktoranti tomonidan mazkur Odob-axloq qoidalarining buzilishi uni belgilangan tartibda javobgarlikka tortishga asos bo‘lib xizmat qiladi.

### **31-modda. Odob-axloq va ichki tartib-qoidalarning o‘zaro munosabati**

Professor-o‘qituvchi va ishchi xodimlar, talaba va doktorantlar mazkur Odob-axloq qoidalarini buzganida, ularga nisbatan oliy ta’lim muassasasi Ichki tartib qoidalarning VII bobida (Mehnat va o‘qish intizomini buzganlik uchun javobgarlik) qayd etilgan choralar qo‘llaniladi.

## **9-BOB. ODOB-AXLOQ KOMISSIYASI FAOLIYATINI TASHKIL ETISH**

### **32-modda. Odob-axloq komissiyasi**

Mazkur Odob-axloq qoidalari normalarining professor-o‘qituvchi va ishchi xodim, talaba va doktorantlar tomonidan buzilishiga oid masalalar, qoida tariqasida, Odob-axloq komissiyasi tomonidan ko‘rib chiqilishi mumkin.

Shuningdek, Odob-axloq komissiyasi, qoida tariqasida, oliy ta’lim muassasasi rektorining ko‘rsatmasi bo‘yicha;

xizmat tekshiruvi natijalariga ko‘ra;

o‘z tashabbusi bilan;

universitet professor-o‘qituvchi va ishchi xodimlaridan, talaba va doktorantlaridan, shuningdek, oliy ta’lim muassasasiga aloqa kanallari orqali

kelib tushgan axborot asosida ham ushbu turdag'i masalalarini ko'rib chiqishi mumkin.

Odob-axloq komissiyasi kamida 5 kishidan iborat tarkibda tuziladi. Odob-axloq komissiyasining maqsadi, vazifalari, funksiyalari, huquqlari va uning faoliyatini tashkil etish bilan bog'liq boshqa masalalar oliy ta'lim muassasasi rektori tomonidan tasdiqlangan Odob-axloq komissiyasi to'g'risidagi nizomda belgilanadi.

### **33-modda. Odob-axloq komissiyasi xulosasi**

Odob-axloq qoidalarining buzilishi holatlarini Odob-axloq komissiyasi tomonidan ko'rib chiqish natijalari bo'yicha intizomiy yoki boshqa tarzdagi qoida buzilishlarining mavjudligi (mavjud emasligi) to'g'risida xulosa chiqariladi. Ayni vaqtda oliy ta'lim muassasasi rektoriga ko'rib chiqishi uchun qoida buzar professor-o'qituvchi va ishchi xodim, talaba va doktorantni javobgarlikka tortish to'g'risida taklif kiritiladi. Yo'l qo'yilgan qoida buzilishining xususiyatini hisobga olgan holda Odob-axloq komissiyasi professor-o'qituvchi va ishchi xodim, talaba va doktorantga nisbatan Odob-axloq qoidalarining buzilishiga yo'l qo'ymaslik to'g'risidagi ogohlantirish bilan cheklanishi mumkin.

Odob-axloq qoidalariga rioya etmagan professor-o'qituvchi va ishchi xodim, talaba va doktorantni intizomiy javobgarlikka tortish bo'yicha buyruq loyihasi fakultet dekanlari va magistratura bo'limi (talabalarga nisbatan), kadrlar bo'limi (professor-o'qituvchi va ishchi xodimlar, va doktorantlarga nisbatan) tomonidan tayyorланади.

Pprofessor-o'qituvchi va ishchi xodim, talaba va doktorantlar o'zлари yo'l qo'ygan qoida buzilishi, qoida buzilishining ko'rib chiqilishi jarayoni haqida axborotni olish va o'zini himoya qilish uchun dalillarni taqdim etish, shuningdek, universitet qarorlari yuzasidan belgilangan tartibda shikoyat qilish huquqiga egadirlar.

### **34-modda. Jamoatchilik nazorati**

Professor-o'qituvchi va ishchi xodimlar, talaba yoki doktorantning xulq-atvori ustidan jamoatchilik nazoratini ta'minlash maqsadida, mazkur Odob-axloq qoidalariga rioya etmaganlik holatlari Kasaba uyushmasi qo'mitasi, Xotin-qizlar masalalari bo'yicha maslahat kengashlari va O'zbekiston yoshlar ittifoqi boshlang'ich tashkilotida ham muhokama qilinishi amaliyoti joriy etilishi mumkin.

## **10-BOB. YAKUNIY QOIDA**

### **35-modda. Odob-axloq qoidalarining kuchga kirishi hamda unga o‘zgartish va qo‘srimchalar kiritish**

Mazkur Odob-axloq qoidalari universitet Kengashi tomonidan tasdiqlanganidan so‘ng kuchga kiradi va unga o‘zgartish hamda qo‘srimchalar kiritish universitet Kengashi qaroriga binoan amalga oshiriladi.

